



ISSN 2181-9130

Doi Journal 10.26739/2181-9130

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

11 ЖИЛД, 1 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 11, НОМЕР 1

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 11, ISSUE 1



ТОШКЕНТ-2026

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF LAW RESEARCH

№1 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2026-1>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Fayziev Shoxrud Farmonovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

12.00.01 - ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚ НАЗАРИЯСИ ВА ТАРИХИ. ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМОТЛАР ТАРИХИ / ТЕОРИЯ ПРАВА И ГОСУДАРСТВА, ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ / THEORY OF LAW AND STATE, HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

Boboyev Halimboy Boboyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Ahmedshaeva Mavlyuda Axatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Adilxodjayeva Surayyo Maxkamovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Sattorov Abdug'afvor
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Yosuke Shamoto
yuridik fanlar doktori, professor (Yaponiya)

Umarxonova Dildora Sharipxonovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Nematov Jo'rabek Nematilloevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

12.00.02 - КОНСТИТУЦИОННЫЙ ҲУҚУҚ, МАЪМУРИЙ ҲУҚУҚ, МОЛИЯ ВА БОЖХОНА ҲУҚУҚИ / КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО; АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО; ФИНАНСОВОЕ ПРАВО / CONSTITUTIONAL LAW; ADMINISTRATIVE LAW; FINANCIAL RIGHT

Malikova Gulchexra
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Xusanov Ozod Tillabayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Selimanova Svetlana Mixaylovna
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)

Xvan Leonid Borisovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Peshkova Xristina Vyacheslavovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)

Sung Un Lee
yuridik fanlar doktori, professor (Janubiy Koreya)

12.00.03 - ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО; ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО; СЕМЕЙНОЕ ПРАВО; МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО / CIVIL LAW; BUSINESS LAW; FAMILY LAW; PRIVATE INTERNATIONAL LAW

Oqyulov Omonboy
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Ro'zinazarov Shuhrat Nuraliyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Ruziyev Rustam Jabborovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Borotov Mirodiljon Xomudjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Toshev Boboqul Norqobilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Shomuxamedova Zamira Shoislamovna
yuridik fanlar doktori, (O'zbekiston)

Ahmad Issa Altweissi
yuridik fanlar doktori, professor (Iordaniya)

Mexmonov Kambariddin Miradxamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

12.00.04 - ФУҚАРОЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ХЎЖАЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ҲАҚАМЛИК ЖАРАЁНИ ВА МЕДИАЦИЯ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; АРБИТРАЖНЫЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ / CIVIL PROCEDURE LAW; ECONOMIC PROCEDURAL LAW; ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

Esanova Zamira Normurodovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Mamasidiqov Muzaffar Musajonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jason A.
Kanton Federal sud markazi (AQSH)

Borut Strazisar
Yuridik bo'lim boshlig'i (Sloveniya)

12.00.05 - МЕҲНАТ ҲУҚУҚИ. ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ҲУҚУҚИ / ТРУДОВОЕ ПРАВО; ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ / THE LABOR LAW; SOCIAL SECURITY LAW

Usmanova Muborak Akmalxonovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Gasanov Mixail Yuriyevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Sattorova Gulnoza Djurakulovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Murodova Gulnora
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Denisov Gleb
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Fayziyev Shuxrat Xasanovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Usmonov Muhammadi Bahridinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Xolmuminov Juma
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jo'rayev Yuldash Achilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Nurmatov Mirg'olib Mirzayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Po'latov Baxtiyor Xalilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Salomov Baxrom Salomovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Osmonaliyev Qayrat
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirzayev Aziz
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Aleksey Kibalnik
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Kudryavtsev Vladislav Leonidovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Sergey Shoshin
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
James B.
Eaglin Federal sud markazi (AQSH)

Rustambayev Mirzayusup Hakimovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Zufarov Rustam Axmedovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Kabulov Rustam
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Rajabova Mavjuda Abdullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Taxirov Farhod
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ismailov Isomiddin
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Hamidov Nurmuhammad Orif o'g'li
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)
Yuldoshev Rifat Raxmadjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Djansarayeva Rima Ernatovna
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Yelena Antonyan Aleksandrovna
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Matthew Light
yuridik fanlar doktori, professor (Kanada)
Qo'shayev Nurali Mahmudovich
yuridik fanlar nomzodi, dotsent (O'zbekiston)

Inog'omjonova Zumratxon Fatxullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Pulatov Yuriy Safiyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
To'laganova Gulchehra Zaxitovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Muxiddinov Faxriddin Muxiddinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirzov Davron Miragzamovich
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)
Rijakov Aleksandr Petrovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Stoyko Nikolay Genadyevich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Iskandarov Zayniddin
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Sergey Pen
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Aleksey Purs
yuridik fanlar doktori, dotsent (Belarus)
Jurgen Maurer
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)
Kevin Curtin
yuridik fanlar doktori, professor (AQSH)

Ismoilov Bahodir Islamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Matkarimova Gulchehra Abdusamatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Yuldasheva Govxerjan
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Alexander Trunk
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)

1. Kutpiddinov Xusniddin Muxiddinovich

ETIM BOLALAR VA OTA-ONA QARAMOG‘IDAN MAHRUM BO‘LGAN BOLALARNI JOYLASHTIRISH SHAKLLARINING HUQUQIY VA INSTITUTSIONAL ASOSLARI.....5

2. Авлиякулова Матлуба Авазовна

КОРПОРАТИВ-ҲУҚУҚИЙ МУНОСАБАТЛАРНИ ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ МУҲИМ ЖИҲАТЛАРИ.....13

3. Раҳимкулова Лола Улуғмуродовна

ИШ ТАШЛАШ БИЛАН БОҒЛИҚ МУНОСАБАТ СУБЪЕКТЛАРИНИНГ ҲУҚУҚ ВА МАЖБУРИЯТЛАРИ. ҚОНУНЧИЛИҚДА НАЗАРДА ТУТИЛГАН КАФОЛАТЛАР.....21

4. Karimova Nigina Botirjon qizi

YO‘QOLIB KETISH XAVFI OSTIDAGI YOYVOYI FAUNA VA FLORA TURLARINI MUHOFAZA QILISHDA VASHINGTON (CITES) KONVENSIYASINING HUQUQIY ANAMIYATI.....28

5. Xakberdiyev Nurali Salaxiddinovich

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARINING PROFESSIONAL FAOLIYATINI BELGILOVCHI OMILLAR.....35

6. Turayev Jo‘rabek Shonazarovich

JORIY SHAROITLARDA ICHKI ISHLAR ORGANLARINING JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASH FAOLIYATINING ILMIIY-NAZARIY TAVSIFI.....43

7. Hojiyev Nosirjon Komilovich

YO‘L HARAKATI VA TRANSPORT VOSITALARIDAN FOYDALANISH QOIDALARINI BUZGANLIK UCHUN JINOIY JAVOBGARLIKNI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI.....50

8. Рузиев Маъруфжон Муртазаевич

ЎЗБЕКИСТОНДА ЖИНОИЙ ЖАЗОЛАРНИНГ ЛИБЕРАЛЛАШУВИ – ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ.....58

9. Orakbayev Erpolat Temirbay ugli

TERGOV SUDYASI INSTITUTI: SHAKLLANISH TARIXI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....65

10. Husanboev Sardor Abdugarimovich


YOSHLAR O‘RTASIDA EKSTREMISTIK TAHDIDLARNING PROFILAKTIK CHORATADBIRLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....72

11. Xolmirzayev Muhsinbek Shavqiddin o‘g‘li

KRIMINOLOGIK SIGNAL TIZIMI (REAL-TIME ALERTS): SUN‘IY INTELLEKT ASOSIDA JINOYAT XAVFINI OLDINDAN ANIQLASH VA PROFILAKTIKA QILISH MODELII.....82

12. Курбонов Давлат Равшанович


ШАХС ОЗОДЛИГИГА ҚАРШИ ЖИНОЯТ СОДИР ЭТГАН ШАХСНИНГ ИЖТИМОИЙ-БИОЛОГИК ТАВСИФИ.....87



Turayev Jo‘rabek Shonazarovich,
 O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
 Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi
 E-mail: jurabekturayev750@gmail.com

JORIY SHAROITLARDA ICHKI ISHLAR ORGANLARINING JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH FAOLIYATINING ILMIY-NAZARIY TAVSIFI

For citation: Turaev Jurabek Shonazarovich. SCIENTIFIC AND THEORETICAL CHARACTERISTICS OF THE ACTIVITIES OF INTERNAL AFFAIRS BODIES IN ENSURING PUBLIC SECURITY UNDER CURRENT CONDITIONS. Journal of Law Research. 2026, 11 vol., issue 1.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18509343>

ANNOTIATSIYA

Mazkur maqolada joriy sharoitlarda jamoat xavfsizligini ta’minlash masalasi kompleks ilmiy-nazariy asosida yoritilgan. Xususan, globallashuv, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, transmilliy jinoyatchilik, terrorizm, ekstremizm hamda kibertaxdidlarning kuchayishi sharoitida ichki ishlar organlari faoliyatiga qo‘yilayotgan yangi talablar ochib berilgan. Maqolada “joriy sharoit”, “jamoat xavfsizligi”, “jamoat tartibi”, “favqulodda vaziyat”, “alohida davr” kabi tushunchalarning mazmun-mohiyati milliy qonunchilik hamda mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari asosida atroflicha tahlil qilingan. Jamoat xavfsizligiga oid turli ilmiy yondashuvlar qiyosiy tarzda o‘rganilib, ularning umumiy va farqli jihatlari aniqlangan.

Kalit so‘zlar: joriy sharoit, jamoat xavfsizligi, jamoat tartibi, favqulodda vaziyat, alohida davr, ichki ishlar organlari, kuch va vositalar.

Тураев Журабек Шоназарович,
 Самостоятельный соискатель Академии Министерства
 внутренних дел Республики Узбекистан
 E-mail: jurabekturayev750@gmail.com

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ ПО ОБЕСПЕЧЕНИЮ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ

АННОТАЦИЯ

В данной статье на комплексной научно-теоретической основе раскрываются вопросы обеспечения общественной безопасности в современных условиях. В частности, анализируются новые требования, предъявляемые к деятельности органов внутренних дел в условиях глобализации, стремительного развития информационно-коммуникационных технологий, усиления транснациональной преступности, терроризма, экстремизма, а также возрастания киберугроз. В статье всесторонне исследуется сущность и содержание таких понятий, как «современные условия», «общественная безопасность», «общественный

порядок», «чрезвычайная ситуация», «особый период», на основе норм национального законодательства, а также научных взглядов отечественных и зарубежных ученых. Осуществлён сравнительный анализ различных научных подходов к пониманию общественной безопасности, в результате которого выявлены их общие и отличительные особенности.

Ключевые слова: современные условия, общественная безопасность, общественный порядок, чрезвычайная ситуация, особый период, органы внутренних дел, силы и средства.

Turaev Jurabek Shonazarovich,
Independent Researcher of the Academy
of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan
E-mail: jurabekturayev750@gmail.com

SCIENTIFIC AND THEORETICAL CHARACTERISTICS OF THE ACTIVITIES OF INTERNAL AFFAIRS BODIES IN ENSURING PUBLIC SECURITY UNDER CURRENT CONDITIONS

ANNOTATION

This article provides a comprehensive scientific and theoretical analysis of issues related to ensuring public security under current conditions. In particular, it examines the new requirements imposed on the activities of internal affairs bodies in the context of globalization, rapid development of information and communication technologies, the growth of transnational crime, terrorism, extremism, as well as the increasing intensity of cyber threats. The article offers an in-depth analysis of the essence and content of such concepts as “current conditions,” “public security,” “public order,” “emergency situation,” and “special period,” based on national legislation and the scientific views of domestic and foreign scholars. Various scientific approaches to the understanding of public security are comparatively examined, and their common and distinctive features are identified.

Keywords: current conditions, public security, public order, emergency situation, special period, internal affairs bodies, forces and means.

Bugungi kunda respublikamizda ichki ishlar organlari faoliyatini tubdan isloh doirasida jamoat xavfsizligi va fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Globallashuv, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, transmilliy uyushgan jinoyatchilik, terrorizm, ekstremizm va kibertaxdidlarning kengayishi kabi global tahdidlar va xavf-xatarlar huquqni muhofaza qiluvchi organlarning, xususan, ichki ishlar organlaridan yangicha yondashuv, yuqori professionallik va samarali boshqaruvni talab qilmoqda.

Aynan shu nuqtai nazardan, joriy sharoitlarda jamoat xavfsizligini ta'minlashda ichki ishlar organlari kuch va vositalarini boshqarish masalasi faqat texnik-taktik yoki tashkiliy jarayon emas, balki davlatning ichki barqarorligini, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishning fundamental mexanizmi sifatida alohida yondashuvni talab etmoqda.

Joriy sharoitlarda jamoat xavfsizligini ta'minlashda ichki ishlar organlari kuch va vositalarini boshqarish tushunchasi va uning mazmun-mohiyatiga to'xtalishdan oldin “joriy sharoit”, “jamoat xavfsizligi” hamda “jamoat xavfsizligini ta'minlash” tushunchalarining mazmunini yoritib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda o'zbek tilining izohli lug'atida qo'llaniladigan “joriy” so'zi arabchadan olingan bo'lib, “yugurayotgan”, “o'tayotgan”, “borayotgan” degan ma'nolarni anglatadi hamda “hozirgi kunda, paytda sodir bo'layotgan, olib borilayotgan; amaldagi, kundalik holatlar va vaziyatlar”ni izohlashda foydalaniladi [1].

“**Joriy sharoit**” tushunchasini xalqaro huquqshunos olimlar turli tarzda ta'riflaydilar. Masalan, rus huquqshunos olimlaridan A.I.Sapojnikov bu tushunchani “ichki ishlar organlari faoliyatining amalga oshirilishi va uning natijalariga ta'sir etuvchi obyektiv va subyektiv omillar majmui” deya ta'riflaydi [2]. V.N.Lukin esa “jamoat xavfsizligiga nisbatan tahdidlarning mavjud

bo'lishi, ularning darajasi va xususiyatlari, shuningdek ularga karshi kurashish imkoniyatlarini belgilovchi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar" deb ta'kidlaydi [3]. Chet el huquqshunoslari esa mazkur ta'rifga boshqa tomondan yondashishni ma'qul ko'rishadi, xususan G.Vitte va M.Manning ta'kidlashicha, joriy sharoitlar faqat tahdidlar bilan emas, balki ichki ishlar organlari (politsiya)ning ushbu tahdidlarga karshi kurashish imkoniyatlari bilan xam belgilanadi [4].

Yuqoridagi olimlarning joriy sharoitlarda ichki ishlar organlari faoliyatini tashkil etishga doir bildirgan fikrlariga qo'shilgan holda shuni aytish mumkinki, O'zbekiston sharoitida joriy sharoitlarda ichki ishlar organlarining jamoat tartibini saqlash faoliyatini to'laqonli tushunish, uning mazmun-mohiyatini yoritish uchun "alohida vaziyatlar", "jamoat tartibi", "jamoat xavfsizligi", "favqulodda holatlar" kabi bir-biriga yaqin bo'lgan tushunchalarni ham yoritib o'tish joizdir.

"favqulodda vaziyat" tushunchasi O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 9-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi to'g'risida"gi qonuni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi"da odamlar qurbon bo'lishiga, ularning sog'lig'i yoki atrof-muhitga zarar yetishiga, jiddiy moddiy talafotlar keltirib chiqarishga hamda odamlarning hayot faoliyati sharoiti izdan chiqishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan avariya, halokat, xavfli tabiiy hodisa, tabiiy yoki boshqa ofat natijasida muayyan hududda yuzaga kelgan holat sifatida ta'riflangan [5].

O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 9-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi to'g'risida"gi qonuni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi"da "alohida davr" hamda "tahdid soluvchi davr" tushunchalari ham belgilangan bo'lib, alohida davr sifatida safarbarlik (harbiy holatni joriy etish) to'g'risida qaror qabul qilingan paytdan boshlanadigan davr, shu jumladan harbiy harakatlar olib boriladigan butun davr, tahdid soluvchi davr sifatida esa vaqtning turli muddat davom etadigan, qoida tariqasida, harbiy mojaro boshlanishidan oldinga to'g'ri keladigan hamda harbiy-siyosiy vaziyat o'ta keskinlashganligi bilan tavsiflanadigan davr nazarda tutilgan [6].

Jamoat xavfsizligi tushunchasi esa, professor S.V.Stepashinning ta'rifiga ko'ra, "jamoat, davlat va shaxs manfaatlariga tahdid solish imkoniyati mavjud bo'lgan ijtimoiy xavf-xatarlar yo'qligi yoki ularning darajasining qabul qilinadigan darajada bo'lishi xolati"dir [7]. Xalqaro amaliyotda esa, bu tushuncha ko'pgina hollarda "ijtimoiy tartib-intizom va ommaviy tinchlikni saqlash" (public order and safety) degan ma'noda ishlatiladi [8].

Fikrimizcha, jamoat xavfsizligi keng ma'noda – bu davlat, jamiyatning normal faoliyati hamda har bir fuqaroga tinch va xavfsiz muhit yaratishga qaratilgan huquqiy, jumladan huquqni muhofaza qiluvchi choralar majmuasidir. Tor ma'noda esa – jamoat joylarida insonlar hayot faoliyati, ularning muloqoti jarayonida yuzaga keladigan idoraviy jamoat munosabatlari tartibi bo'lib, bu faoliyat sivilizatsiyalashgan jamiyatning odat va qoidalariga mos holda huquqiy normalar bilan tartibga solinadi. Jamoat xavfsizligining tor ma'nodagi mazmuniga jamoat xavfsizligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solish va davlat organlarining, jumladan huquqni muhofaza qiluvchi organlarning amaliy faoliyatini nazarda tutuvchi huquqiy va tashkiliy choralar majmuasi kiradi.

Ayrim yuridik adabiyotlarda jamoat xavfsizligi – bu shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlarini jinoiy va boshqa huquqqa xilof harakatlardan hamda ijtimoiy nizolar, tabiiy ofatlar, epidemiyalar, epizootiyalar, katta falokatlar, avariya va yong'inlar natijasida kelib chiqadigan favqulodda vaziyatlar oqibatlaridan himoyalanganlik holatidir deya deya ta'rif ham berilganligini uchratishimiz mumkin.

Shuningdek, ayrim huquqshunos olimlarning qarashlariga ko'ra, jamoat xavfsizligi – bu jamiyatda yuzaga keladigan va huquqiy hamda texnik normalar bilan tartibga solinadigan munosabatlar tizimi bo'lib, odamlarning hayoti, sog'lig'i va mulk xavfsizligini ta'minlashga, shuningdek ular uchun xavfli tahdidlarning oldini olishga yo'naltirilgandir.

A.N. Pozdnishev ham jamoat xavfsizligini jamiyat tizimining hayot faoliyatining holati va sharoiti sifatida ta'riflaydi. Uning fikriga ko'ra, jamoat xavfsizligi ijtimoiy tizimning o'z funksiyalarini bajarish sifati, hamda ichki va tashqi noma'qul shartlarda barqaror holatda saqlanish qobiliyati sifatida namoyon bo'ladi, bu esa xavfsizlik muammolarini hal qilish imkoniyatini ham o'z ichiga oladi. Ammo ushbu ta'rifning kamchiligi shundaki: birinchi — bu ta'rif jamoat xavfsizligini

ta'minlashning asosiy maqsadini aks ettirmaydi; ikkinchi — himoya obyekti aniq belgilanmagan, bu esa davlat siyosatini amalga oshiruvchi subyektlarning vazifa va funksiyalarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, jamoat xavfsizligi tushunchasi milliy qonun va qonunosti normativ-huquqiy hujjatlarimizda ham yoritilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-27-son farmonining birinchi ilovasiga muvofiq tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi Konsepsiyasi"da jamoat xavfsizligi tushunchasiga "jamiyatning qonunga xilof tajovuzlar, ijtimoiy va millatlararo nizolar, favqulodda vaziyatlar va boshqa tahdidlardan himoyalanganlik holati bo'lib, u jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi hamda insonning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ro'yobga chiqarilishini ta'minlaydi" deya ta'rif berilgan [9].

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, Y.Y. Basovanning quyidagi fikri o'rinli hisoblanadi. "Jamoat xavfsizligini ta'minlash masalalari bugungi kunda jamiyat va davlat uchun ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu sohadagi huquqiy, tashkiliy va institutsional yondashuvlar faqat odatiy holatlarda emas, balki favqulodda sharoitlarda ham samarali ishlashi zarur. Bu esa ushbu masalani ilmiy-amaliy nuqtai nazardan chuqur o'rganish zarurligini yanada kuchaytiradi"[10]

Bugungi kunda "Jamoat xavfsizligi" tushunchasi ilmiy doiralarda juda qo'llaniladi. Shu bilan birga huquqni muhofaza qiluvchi va turli ijro etuvchi davlat organlarining amaliy faoliyatida alohida yo'nalish sifatida qaralsada ammo hanuzgacha mazkur tushuncha yuzasidan yakdil yondashuv mavjud emas. Shu sababli, jamoat xavfsizligi tushunchasining mazmunini aniqlash masalasida ilmiy adabiyot va amaldagi qonunchilikni kompleks tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

O'tgan asrning 60-yillarda jamoat tartibi tushunchasiga oid ikki asosiy konsepsiya M.I. Yeropkin va A.V. Seryogin tomonidan ilgari surilgan.

M.I. Yeropkin jamoat tartibini quyidagicha ta'riflaydi: "Jamoat tartibi – bu butun xalq manfaatlari bilan belgilangan, huquq normalari, axloq, jamoaviy hayot qoidalari va urf-odatlar bilan tartibga solinuvchi idoraviy jamoaviy munosabatlar tizimi bo'lib, asosan jamoat joylarida shakllanadi. Shuningdek, jamoat joylaridan tashqarida ham vujudga keladigan va rivojlanadigan, lekin o'z mohiyatiga ko'ra fuqarolarning hayoti, sog'ligi, sha'nini himoya qilish, xalq mulkini mustahkamlash, jamiyatda osoyishtalikni ta'minlash hamda korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning faoliyat yuritishi uchun normal sharoit yaratishga xizmat qiluvchi jamoaviy munosabatlar tizimidir" [11].

A.V. Seryogin esa jamoat tartibini quyidagicha tavsiflaydi: "Bu – huquq normalari va boshqa ijtimoiy meyorlar bilan tartibga solinuvchi jamoaviy munosabatlar tizimi bo'lib, ularning shakllanishi, rivojlanishi va muhofazasi fuqarolarning jamiyat va shaxsiy tinchligini saqlash, ularning sha'ni, qadr-qimmatini va jamoat axloqini hurmat qilishni ta'minlaydi" [12].

Ushbu konsepsiyalar o'rtasidagi asosiy farq shundaki, M.I. Yeropkin jamoat tartibini sharhlashda munosabatlar shakllanadigan joy, ya'ni jamoat joylarini asosiy mezon sifatida oladi, A.V. Seryogin esa e'tiborni munosabatlar mazmuniga qaratadi – ya'ni ularning axloqiy va huquqiy mohiyatini ustuvor deb hisoblaydi.

Konsepsiyalar o'rtasidagi umumiy jihatlarga to'xtaladigan bo'lsak, har ikki olim ham jamoat tartibini huquqiy va axloqiy meyorlar bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar tizimi sifatida qabul qiladi. Masalan, A.V. Seryogin jamoat tartibini jamoat axloqi bilan yaqin bog'liq holda ko'radi, bu esa jamoat tartibining faqat huquqiy emas, balki axloqiy negizga ega ekanligini ta'kidlaydi.

Demak, yuqoridagi konsepsiyalardan umumiy xulosa chiqaradigan bo'lsak, jamoat tartibi nafaqat jamoat joylaridagi harakat va munosabatlarni, balki fuqarolarning tinchligi, xavfsizligi, axloqiy qadriyatlarini va shaxsiy qadr-qimmatini ta'minlashga qaratilgan keng qamrovli ijtimoiy munosabatlar tizimidir.

Shunday qilib, bugungi kunda "jamoat xavfsizligi" tushunchasi atrofida ham turli fikr va qarashlar shakllangan bo'lib hozirgi kunga qadar bu borada yagona yondashuv mavjud emas. Xususan, M.X. Rustambayev jamoat xavfsizligi tushunchasiga jamiyat hayotining xavfsiz sharoiti, ya'ni shaxslarning daxlsizligi, fuqarolarning hayoti va sog'lig'i, jismoniy va yuridik shaxslarning

mulkiy manfaatlari, har qanday davlat yoki jamoat birlashmalarining bir meyorda ish olib borilishi ta'minlovchi ijtimoiy munosabatdir sifatida ta'rif bergan [13].

I.R. Alijonov esa jamoat xavfsizligini jamiyatning hayotiy muhim manfaatlarining ichki va tashqi xavf-xatarlar, tahdidlar va tajovuzlardan himoyalanganlik holati sifatida tushuntiradi [14].

A.F. Joldasov jamoat xavfsizligi deganda shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy manfaatlarini to'sqinliksiz ro'yobga chiqarishni ta'minlashga, potensial yoki real xavf tug'diruvchi shart-sharoitlar va omillarning oldini olishga, mahalliy lashtirishga va bartaraf etishga qaratilgan ijtimoiy munosabatlarni yetarli darajada himoya qilish holati tushunilishi kerak deb hisoblaydi [15].

P.G. Shagilov jamoat xavfsizligi deganda shaxs, jamiyat va davlatning huquq va erkinliklari, moddiy va ma'naviy qadriyatlarini, shu jumladan sha'ni va qadr-qimmatini, hayoti va sog'lig'ini har xil jinoyatlar, ijtimoiy va etnik nizolar, shuningdek, tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar, ma'muriy va boshqa turdagi ijtimoiy xavfli qilmishlardan, huquqbuzarlik va jinoyatlardan himoya qilinganlik holati tushunilishini ta'kidlaydi [16].

L. Rogozin jamoat xavfsizligini tabiiy ofatlar yoki boshqa maxsus sharoitlar bilan bog'liq holda, alohida sharoitlar yuzaga kelganda jamiyat uchun ortib borayotgan xavf tug'diruvchi obyektlardan foydalangan holda, huquqiy normalarga muvofiq shakllanadigan jamoat munosabatlari tizimi sifatida talqin qiladi [17].

S.I. Girkoning fikricha, jamiyatni ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilish sifatida jamoat xavfsizligi juda muhim nazariy va amaliy muammo ekanligini ko'rsatadi, uni hal qilish, boshqa ijtimoiy munosabatlar qatori, mamlakatda jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha huquqni muhofaza qilish strategiyasini belgilashga bevosita bog'liq [18].

Yuqoridagi huquqshunos olimlarning jamoat xavfsizligini ilmiy jihatdan ta'riflash bo'yicha bergan ta'riflariga qo'shilgan holda, fikrimizcha "jamoat xavfsizligi"ning mazmunini aniqlash bo'yicha olib borgan tahlillariga asosida quyidagi xulosalarni qo'shishimiz mumkin:

birinchidan, bu yetarli darajadagi himoyalanganlik holatidir. Bunday holat shaxs, jamiyat va davlat uchun haqiqiy yoki potensial xavf-xatarlar mavjud emasligini va ushbu holatni qo'llab-quvvatlovchi choralar mavjudligini anglatadi, bu esa aholida himoyalanganlik hissini shakllantiradi. Jamoat xavfsizligini samarali ta'minlash fuqarolarning amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan huquqlarini, xususan shaxsiy huquqlarini xavfsizlik va jamoat osoyishtaligi sharoitida amalga oshirish imkonini beradi. Boshqa so'z bilan aytganda, turli xil tahdidlar yo'q sharoitda fuqarolar o'z hayoti, sog'lig'ini muhofaza qilish, shaxsiy daxlsizlik, mehnat, yashash joyini erkin tanlash, dam olish huquqlarini xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan sharoitlarda amalga oshirishlari mumkin;

ikkinchidan, jamoat xavfsizligi umumiy va maxsus vakolatga ega davlat hokimiyati organlari, nodavlat tashkilotlar va fuqarolar tizimi orqali ta'minlanadi. Shu munosabat bilan jamoat xavfsizligi davlat tomonidan ta'minlanadi va agarda muhofaza qilinayotgan obyektlar uchun xavf tug'diradigan vaziyat yuzaga kelsa, davlat vakolatli hokimiyat organlari orqali bunday xavflarni bartaraf etish maqsadida favqulodda, istisno va vaqtinchalik chora-tadbirlarni amalga oshirishi shart;

uchinchidan, jamoat xavfsizligini ta'minlash eng samarali ravishda jamoat tartibi mavjud bo'lgan holda amalga oshiriladi. Ilgari o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, barqaror jamoat tartibisiz jamoat xavfsizligini samarali ta'minlab bo'lmaydi. Shu sababli, jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi meyoriy-huquqiy hujjatlarda ko'pincha «jamoat xavfsizligi» va «jamoat tartibi» atamallari o'zaro bog'liq va shartli tushunchalar sifatida qo'llaniladi;

to'rtinchidan, jamoat xavfsizligini ta'minlash majburiy ravishda ma'lum normalar tizimi (odatda, huquqiy) asosida tartibga solinadi. Bu belgi shundan dalolat beradiki, aholini huquqbuzarliklar va turli xil tahdidlardan himoya qilish huquq normalari asosida amalga oshiriladi. Shuni ta'kidlash kerakki, huquq normalari jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi ko'plab ijtimoiy munosabatlarni, ayniqsa, favqulodda holatlarda tartibga soladi, jumladan: inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalga oshirish tartibi, jamoat xavfsizligi sohasida fuqarolarning xulq-atvori chegaralari, jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan jamoat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan muayyan harakatlarni amalga oshirish bo'yicha vaqtinchalik majburiyatlar,

huquqbuzarlik turlari belgilanadi, ya'ni faqat huquq normalari orqali jamoat xavfsizligiga tajovuz qilishi mumkin bo'lgan barcha harakatlar ro'yxati belgilab qo'yiladi – ham odatiy hayot sharoitida, ham favqulodda vaziyatlar sharoitida.

Yuqoridagilardan kelib chiqib jamoat xavfsizligiga oid asosiy yondashuvlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

jamoat xavfsizligi – bu jamiyatning himoyalanganlik holati hisoblanadi. Unga ko'ra, jamoat xavfsizligi shaxs, jamiyat va davlatning real yoki potensial tahdidlardan yetarli darajada himoya qilinganligini anglatadi. Bu aholida osoyishtalik va xavfsizlik hissini shakllantiradi.

Shuningdek, jamoat xavfsizligi – huquqiy, axloqiy va texnik normalarga asoslangan tizim. Jamoat xavfsizligi huquqiy normalar orqali tartibga solinadi va ushbu normalar turli tahdidlarga qarshi qonuniy choralar ko'rishni belgilaydi. Shu bilan birga jamoat axloq, urf-odat, rasm-rusm, an'ana kabi ijtimoiy normalar bilan ham tartibga solinadi. jamoat xavfsizligiga oid texnik norma jamoat xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladigan texnik standartlar, etalon kabilardan iborat. Jamoat xavfsizligi – ijtimoiy munosabatlarning maxsus holati. U muayyan tarixiy, tabiiy yoki ijtimoiy shart-sharoitlarda faoliyat yurituvchi jamiyat tizimining barqarorligi va o'zini saqlab qolish qobiliyatini ifodalaydi.

jamoat tartibi – xavfsizlikning asosiy sharti. Jamoat xavfsizligini samarali ta'minlash uchun barqaror jamoat tartibi zarur. Bu ikki tushuncha o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiradi xavfsizlik, shu jumladan jamoat xavfsizligi davlat va jamiyat institutlari orqali ta'minlanadi. Davlat organlari (huquqni muhofaza qiluvchi organlar), nodavlat tashkilotlar va fuqarolar xavfsizlikni ta'minlashda faol ishtirok etadi. Jamoat xavfsizligi tarmoqli institutlar majmuasiga ega. Bu institutsional tizim terrorizm, ekstremizm, noqonuniy migratsiya, korrupsiya, tabiiy va texnogen ofatlar kabi xavflarga qarshi kurashishni o'z ichiga oladi.

Jamoat xavfsizligining yagona ilmiy akademik va huquqiy ta'rifi mavjud emas va u ko'p qirrali tushuncha hisoblanadi. Turli olimlar uni ma'muriy-huquqiy, ijtimoiy, axloqiy yoki texnik jihatdan izohlaydilar. Bu uning universal xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati: 80.000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. J. V. Q –Tartibli / Tahrir hay'ati: T.Mirzaev (rahbar) va boshq. O'z. Res. FA Til va adabiyot in-ti. –T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. B. 138. (Explanatory dictionary of the Uzbek language: more than 80,000 words and word combinations. J. V. Q –Tartibli / Editorial board: T. Mirzaev (head) and others. Uz. Res. FA Institute of Language and Literature. –T.: “National Encyclopedia of Uzbekistan” State Scientific Publishing House, 2006. P. 138.)
2. Сапожников А. И. Войско Донское в Отечественной войне 1812 года. – Альянс-Архео, 2012. (*Sapozhnikov, A. I. The Don Cossack Host in the Patriotic War of 1812. Moscow: Alliance-Archeo, 2012.*)
3. Лукин В. Н., Мусиенко Т. В., Чижиков Э. Н. Геоэкономические и политические особенности комплексной системы безопасности Российской Арктики //Вестник Мурманского государственного технического университета. – 2016. – Т. 19. – №. 2. – С. 443-450. (Lukin, V. N., Musienko, T. V., & Chizhikov, E. N. (2016). Geo-economic and political features of the integrated security system of the Russian Arctic. *Bulletin of Murmansk State Technical University*, 19(2), 443–450.)
4. МАН Х. М. Особенности психологического консультирования старшеклассников при возвращении в школу в условиях пандемии covid-19. – университетская книга конференция: наука молодых-будущее россии Курск, С. 103-107. (Man, H. M. Features of psychological counseling of high school students upon returning to school during the COVID-19 pandemic. In *University Book Conference: Science of the Young – the Future of Russia* (pp. 103–107). Kursk.)
5. Ўзбекистон Республикасининг 2018-йил 9-январдаги “Ўзбекистон Республикасининг Мудофаа доктринаси тўғрисида”ги қонуни билан тасдиқланган “Ўзбекистон Республикасининг Мудофаа доктринаси”// <https://lex.uz/docs/3495885>. (Republic of Uzbekistan.

- (2018, January 9). Defense Doctrine of the Republic of Uzbekistan, approved by the Law “On the Defense Doctrine of the Republic of Uzbekistan”. Retrieved from Lex.uz.)
6. Ўзбекистон Республикасининг 2018-йил 9-январдаги “Ўзбекистон Республикасининг Мудофаа доктринаси тўғрисида”ги қонуни билан тасдиқланган “Ўзбекистон Республикасининг Мудофаа доктринаси” // <https://lex.uz/docs/3495885>. (Republic of Uzbekistan. (2018, January 9). Defense Doctrine of the Republic of Uzbekistan, approved by the Law “On the Defense Doctrine of the Republic of Uzbekistan”. Retrieved from Lex.uz.)
7. Сальников В. П., Степашин С. В., Хабибулина Н. Г. Государственная идеология и язык закона. – 2001. (Salnikov, V. P., Stepashin, S. V., & Khabibulina, N. G. State Ideology and the Language of Law. Moscow, 2001.)
8. Klingemann H. Public order and safety // Mapping the Social Consequences of Alcohol Consumption. – Dordrecht : Springer Netherlands, 2001. – С. 113-132. (Klingemann, H. (2001). Public order and safety. In Mapping the Social Consequences of Alcohol Consumption (pp. 113–132). Dordrecht: Springer Netherlands.)
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 29 ноябрдаги “Ўзбекистон Республикаси жамоат хавфсизлиги концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чоратадбирлари тўғрисида”ги ПФ-27-сон фармони // <https://lex.uz/docs/5749291> (President of the Republic of Uzbekistan. (2021, November 29). Decree No. PF-27 “On Approval of the Concept of Public Security of the Republic of Uzbekistan and Measures for Its Implementation”. Retrieved from Lex.uz.)
10. Басова Ю.Ю. Понятие общественной безопасности // теоретические аспекты и правовые подходы к определению понятия общественной безопасности. (Basova, Y. Y. The concept of public security: theoretical aspects and legal approaches to defining public security.)
11. Еропкин М.И. Управление в области охраны общественного порядка. М., 1951. ст. 7. (Eropkin, M. I. Management in the Field of Public Order Protection. Moscow, 1951, p. 7.)
12. Серегин А.В. Советский общественный порядок и административно-правовые средства его укрепления. М., 1975., ст. 4. (Seregin, A. V. Soviet Public Order and Administrative-Legal Means of Its Strengthening. Moscow, 1975, p. 4.)
13. Rustambayev M.X. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar 3-tom (maxsus qism).– Т: «Yuridik adabiyotlar publish», 2021. – 324-В. (Rustambayev, M. H. Commentary on the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan. Volume 3 (Special Part). Tashkent: Yuridik Adabiyotlar Publish, 2021, p. 324.)
14. Jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasining huquqiy asoslarini takomillashtirish
15. А.Ф. Жолдасов. Жамоат хавфсизлиги: тушунчаси, таърифи ва ўзига хос хусусиятлари // Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89 DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1163-1174
16. П.К. Шагилов. Жамоат хавфсизлиги тушунчаси ва ўзига хос хусусиятлари // Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89 DOI: 10.24412/2181-1385-2021-12-1197-1205
17. Попов Л.Л. Административное право (вопросы административно-юрисдикционной деятельности органов внутренних дел). М.: Академия МВД СССР. 1983. 280 с. (Popov, L. L. Administrative Law (Issues of Administrative-Jurisdictional Activities of Internal Affairs Bodies). Moscow: Academy of the USSR Ministry of Internal Affairs, 1983. 280 p.)
18. Гирько С.И. Обеспечение общественной безопасности в системе мер защиты личности, общества и государства: состояние, проблемы, перспективы // Административное право и процесс. 2009. № 5. С. 8. (Girko, S. I. (2009). Ensuring public security in the system of measures for protecting the individual, society, and the state: status, problems, and prospects. Administrative Law and Procedure, No. 5, pp.8)

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF LAW RESEARCH

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000